



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
IV-QISM**



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
IV-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

YASHIL ENERGIYA SEKTORIDA VENCHUR INVESTITSIYALARINING RIVOJLANISHI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON IMKONIYATLARI	12
Qarajanova Gulnoza Tolliyeвна MILLIY KOMPANIYALARNI BAYNALMILALLASHUV BOSQICHLARI VA XALQARO KORPORATIV BIRLASHUVLAR (M&A) STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	19
Shokirov Shoxruxmirzo Baxtiyorjon o'g'li QISHLOQ XO'JALIGINI IQLIM VA EKOLOGIK O'ZGARISHLARGA MOSLASHTIRISHDA SMART TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH METODOLOGIYASINI RIVOJLANTIRISH	23
Mirzataev Salamat Muratbaevich QISHLOQ XO'JALIGIDA MEVACHILIK KLASSTERLARINI TASHKIL ETISHNING ISHLAB CHIQARISH VA RENTABELLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	28
Tureev Azizbek Abatovich QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH XIZMATLARINI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK MODELII	32
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich TOG'-KON SANOATI KORXONALARIDA RESURS TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	37
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna Sharipov Kongratbay Avezimbetovich THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL INSURANCE MARKET AND THE LEVEL OF INCLUSIVENESS	43
Ravshanova Mohinur O'rolovna O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI AJ KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	51
Kurbonova Ma'mura Abdukarim qizi TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI	55
Qaraev Anvar Botirovich THE IMPACT OF LOYALTY PROGRAMS ON CUSTOMER RETENTION IN ONLINE COSMETICS: A MIXED-METHODS STUDY	61
Toirova Mubina IQLIM O'ZGARISHI VA "YASHIL" TRANSFORMATSIYANING JAHON MOLIYA BOZORLARIGA TA'SIRI	66
Qo'chqorova Muxlisaxon Ulug'bek qizi KICHIK BIZNES RIVOJLANISHIDA RAQAMLI PLATFORMALAR - ELEKTRON TIJORAT SAYTLARI, MARKETPLEYSLAR VA MOBIL ILOVALARNING O'RNI	73
Rizayeva Nilufar Oblakulovna SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING BIZNES JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISHDAGI IQTISODIY SAMARADORLIGI	79
Abdulla Mavlonov QISHLOQ XO'JALIGIDA SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARI LOGISTIKASINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI BOZOR INFRATUZILMASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH	82
Komekova Gulzira Sharbaevna	



МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К АГРЕГИРОВАНИЮ РАЗРОЗНЕННЫХ ДАННЫХ В ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ	87
Бекматов Акмал Курбонмахматович	
SUG'URTA TASHKILOTLARIDA MHXSGA O'TISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI	93
Azamatova G. I.	
O'ZBEKISTON SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHGA YO'NALTIRILGAN INVESTITSİYALARINING XARAJAT-FOYDA TAHLILI	98
Omonov Olim Murodullayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	104
Isxakova Sarvar Ayubovna	
Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna	
ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ В КРЕДИТНОМ СКОРИНГЕ РОЗНИЧНЫХ ЗАЁМЩИКОВ: ОПЫТ АКБ «КАПИТАЛБАНК» (РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН)	109
Жанайдарова Камола Абаевна	
INVESTITSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHDA IPO VA KORPORATIV OBLIGATSIYALAR SAMARADORLIGI	115
G'afurov Sherzod Abdvaxob o'g'li	
O'ZBEKISTON TURIZM BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING TADQIQOTLARNING AHAMIYATI	120
Usmanova Zumrad Islamovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIL VODOROD IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING BIZNES VA INVESTITSION MEKANIZMLARI	123
Nuraliyeva Komila Sanaqulovna	
XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA XALQARO TAJRIBALAR TAHLILI: SOLIQ ISLOHOTLARI VA RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI	130
Utkirova Jasmina Jasur qizi	
XORIJIY DAVLATLAR AMALIYOTIDA XUSUSIY INVESTITSİYALAR VA AHOLI DAROMADLARI O'RTASIDAGI MUTANOSIBLIKNI TARTIBGA SOLISH YO'NALISHLARI	135
Salimova Zaxro Sobirjon qizi	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI VA BASHORATI	141
Xakimov D.R.	
ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОГРЕССА НА ЗАНЯТОСТЬ: ОПТИМИЗАЦИЯ И ТРАНСФОРМАЦИЯ РАБОЧИХ МЕСТ	151
Эркинбаева Камила Жавлонбековна	
TIJORAT BANKLARI MOLİYAVIY RESURLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	156
Tangirkulov Bekzod Boxadirovich	
HUDUDLARDA TURISTLARGA UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARINI KO'RSATISHNING SAMARALI RIVOJLANISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH: RFEI INDEKSI, KLASSTER MODELI VA "TASTE UZBEKISTAN" RAQAMLI EKOTIZIMI	162
Maxmadiyeva Charos Xayrullayevna	
SAVDODA MARKETING TADQIQOTLARINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	171
Jalalova Dildora Jamolovna	
КЛИМАТИЧЕСКОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ В КОНТЕКСТЕ ДОСТИЖЕНИЯ ЦЕЛЕЙ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	174
Лана Цхай	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLARNI MOLİYAVIY HISOBOTDA AKS ETTIRISHNI MASALALARI	181
G'oziyeva Moxira Rustam qizi	



INVESTITSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHDA IPO VA KORPORATIV OBLIGATSIYALAR SAMARADORLIGI

G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada investitsion loyihalarni moliyalashtirishda kapital bozori instrumentlari sifatida IPO (Initial Public Offering) va korporativ obligatsiyalarning samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqotda ushbu moliyalashtirish manbalarining investitsion loyihalarni amalga oshirishdagi afzalliklari, cheklovlari hamda korxonalar uchun iqtisodiy samaradorligi o'rganilgan. Xalqaro tajriba va O'zbekiston kapital bozori amaliyoti asosida IPO va korporativ obligatsiyalar orqali mablag' jalb qilishning moliyaviy natijalarga, kapital qiymatiga hamda investorlar manfaatlariga ta'siri baholangan.

Kalitsso'zlar: investitsion loyiha, kapital bozori, IPO, korporativ obligatsiyalar, moliyalashtirish, investitsiyalar, qimmatli qog'ozlar bozori, investorlar, korporativ moliya, mablag' jalb qilish.

Аннотация. В данной статье проанализирована эффективность IPO (Initial Public Offering) и корпоративных облигаций как инструментов рынка капитала для финансирования инвестиционных проектов. В исследовании рассмотрены преимущества, ограничения и экономическая эффективность данных источников финансирования при реализации инвестиционных проектов. На основе международного опыта и практики рынка капитала Узбекистана оценено влияние привлечения средств через IPO и корпоративные облигации на финансовые результаты, стоимость капитала и интересы инвесторов.

Ключевые слова: инвестиционный проект, рынок капитала, IPO, корпоративные облигации, финансирование, инвестиции, рынок ценных бумаг, инвесторы, корпоративные финансы, привлечение капитала.

Abstract. This article analyzes the effectiveness of IPOs (Initial Public Offerings) and corporate bonds as capital market instruments for financing investment projects. The study examines the advantages, limitations, and economic efficiency of these financing sources in the implementation of investment projects. Based on international experience and the practice of the capital market in Uzbekistan, the impact of raising funds through IPOs and corporate bonds on financial performance, cost of capital, and investors' interests is assessed.

Keywords: investment project, capital market, IPO, corporate bonds, financing, investments, securities market, investors, corporate finance, capital raising.

KIRISH

Investitsion loyiha uchun kapital manbaini tanlash korxonaning oddiy moliyalashtirish qarori emas; bu qaror loyiha sof joriy qiymati (NPV), firma kapitalining o'rtacha tortilgan qiymati (WACC), aksiyadorlik nazorati, risk profili va kelgusi kapital jalb qilish qobiliyatiga bir vaqtning o'zida ta'sir qiladi.

Aynan shu sababli IPO va korporativ obligatsiyalar bir xil summadagi mablag'ni jalb qilgan taqdirda ham bir xil "iqtisodiy narx"ga ega emas. IPOda korxona qaytarib berilishi shart bo'lmagan kapital oladi, lekin buning evaziga nazorat paketining o'zgarishi, doimiy oshkor etish talablari, listing xarajatlari va noqulay bozor oynasida riskni qabul qiladi. Obligatsiyada esa nazorat saqlanadi, lekin qaytarish majburiyati, kupon oqimi, defolt xavfi va kovenant intizomi kuchayadi. Nazariy adabiyotlar aksiyalar emissiyasi ko'pincha bozor tomonidan noqulay signal sifatida talqin qilinishini, qarz emissiyasida esa bunday salbiy tanlov xarajatlari odatda pastroq bo'lishini ta'kidlaydi (Myers va Majluf, 1984) [1].

O'zbekiston kontekstida bu masala yanada murakkab. Bir tomondan, regulyator kapital bozorini global standartlarga yaqinlashtirish, investorlarni himoya qilish, qimmatli qog'ozlar bo'yicha reyestrlarni yuritish va bozorning institutsional asosini mustahkamlash vazifasini bajarmoqda. Ikkinchi tomondan, bozor likvidligi hali yetarlicha katta emasligi xalqaro tahlillarda qayd etilmoqda. Financial Times O'zbekiston kapital bozorini "nascent", ya'ni hali yetilayotgan, savdo hajmi past bozor sifatida tavsiflaydi. Istiqbolli loyihalar milliy agentligi



kapital bozori bo'yicha davlat ro'yxatidan o'tgan qimmatli qog'ozlar reyestrini yuritadi hamda 2026-yil iyun oyida O'zbekistonda ilk ipoteka obligatsiyalari emissiyasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganini xabar qildi. Bu korporativ qarz instrumentlari tarkibining kengayib borayotganini, ya'ni bozor oddiy aksiyalar va oddiy obligatsiyalar bilan cheklanmayotganini anglatadi [2].

Shundan kelib chiqib, maqolada quyidagi tadqiqot savollarini qo'yish mumkin: birinchisi, investitsion loyiha uchun WACC-minimallashtiruvchi va NPV-maksimallashtiruvchi instrument qaysi sharoitda IPO, qaysi sharoitda obligatsiya bo'ladi; ikkinchisi, O'zbekiston bozorining hozirgi institutsional holati bu tanlovni qanday modulyatsiya qiladi; uchinchisi, emitent va reguliator darajasida qaysi amaliy choralar kapital bozori orqali moliyalashtirish samaradorligini oshiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda IPO va korporativ obligatsiyalardan foydalanish zamonaviy korporativ moliya adabiyotlarida kapital bozoriga asoslangan muhim moliyalashtirish yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. 2010-yildan keyingi tadqiqotlarda bank kreditlariga qaramlikni kamaytirish, uzoq muddatli kapitalni jalb qilish, investitsion risklarni investorlar o'rtasida taqsimlash hamda korxonalarning moliyaviy barqarorligini oshirish masalalari alohida ta'kidlanadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda kapital bozori instrumentlari investitsion loyihalarni moliyalashtirishda muqobil manba bo'lib xizmat qiladi [3].

IPO — aksiyalarni birlamchi ommaviy joylashtirish — korxonaga qarz majburiyatini oshirmasdan kapital jalb qilish imkonini beradi. De Jong, Huijgen, Marra va Roosenboom tadqiqotida kompaniyalarning ommaviy bozorga chiqishi nafaqat moliyaviy resurs jalb qilish, balki mahsulot bozorida mavqeiini mustahkamlash bilan ham bog'liqligi qayd etiladi. Ularning fikricha, IPO orqali jalb qilingan kapital kompaniyaga ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish, raqobatbardoshlikni oshirish va yangi investitsion imkoniyatlardan foydalanish imkonini beradi [4].

Lowry, Michaely va Volkova o'z tadqiqotida IPO jarayoni bir nechta asosiy jihatlar orqali baholanishini: aksiyalarni joylashtirish narxi, "underpricing" darajasi, anderrayterlar roli, investorlar talabi va kompaniyaning uzoq muddatli bozordagi natijalari ekanini ta'kidlagan. Maqolada IPO kapital jalb qilishning samarali shakli bo'lishi bilan birga, yuqori tranzaksiya xarajatlari, axborot oshkorligi talablari va aksiyadorlik nazorat paketining o'zgarishi kabi muammolarni ham yuzaga keltirishi ta'kidlanadi [5].

Korporativ obligatsiyalar esa investitsion loyihalarni qarz kapitali orqali moliyalashtirishning muhim vositasi hisoblanadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, XVF va Jahon banki tomonidan tayyorlangan hisobotda kapital bozori instrumentlari, jumladan, korporativ obligatsiyalar infratuzilma va kichik hamda o'rta biznes loyihalariga institutsional investorlar mablag'ini jalb qilishda muhim vosita sifatida baholanadi [6]. Obligatsiyalar orqali moliyalashtirish kompaniyaga aksiyadorlik ulushini kamaytirmasdan, ya'ni mulkchilik nazoratini saqlagan holda mablag' jalb qilish imkonini beradi.

Ayala, Nedeljkovic va Saborowski tadqiqotida rivojlanayotgan mamlakatlarda korporativ obligatsiyalar bozori bank kreditlariga muqobil moliyalashtirish kanali sifatida kengayib borayotgani ko'rsatiladi. Mualliflar mahalliy valyutadagi obligatsiyalar bozori rivojlanishi uchun makroiqtisodiy barqarorlik, institutsional sifat, investorlar ishonchi va moliyaviy infratuzilma muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi [7]. Bu xulosa investitsion loyihalarni moliyalashtirishda obligatsiyalarning samaradorligi faqat emitent kompaniya holatiga emas, balki mamlakat kapital bozori rivojlanish darajasiga ham bog'liq ekanini ko'rsatadi.

OECDning 2019 va 2020-yillardagi hisobotlarida korporativ obligatsiyalar bozori global miqyosda keskin kengaygani, biroq bu jarayon ayrim risklarni ham kuchaytirgani qayd etiladi. Xususan, obligatsiyalar hajmining ortishi, past reytingli qarzlarning ko'payishi, qayta moliyalashtirish bosimi va investorlar himoyasining zaiflashuvi korporativ obligatsiyalar samaradorligini baholashda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan omillar sifatida ko'rsatiladi [8]. Demak, obligatsiyalar investitsion loyihalar uchun qulay moliyalashtirish manbasi bo'lishi mumkin, ammo ular doimiy kupon to'lovlari va asosiy qarzni qaytarish majburiyatini yuzaga keltiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda IPO va korporativ obligatsiyalarning investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi samaradorligi qiyosiy-tahliliy yondashuv asosida o'rganildi. Tahlilda ochiq manbalar, reguliator ma'lumotlari, qimmatli qog'ozlar reyestri va xalqaro listing tajribalaridan foydalanildi. Tadqiqotda asosiy e'tibor to'rtta ko'rsatkichga qaratildi: kapital narxi, loyiha samaradorligi, bozor reaksiyasi va ko'p mezonli samaradorlik bahosi. IPO bo'yicha aksiyadorlik kapitali qiymati, ulush suyulishi va joylashtirish xarajatlari; korporativ obligatsiyalar bo'yicha esa kupon stavkasi, foiz xarajatlari, likvidlik spreddi va qarz yukining ta'siri baholandi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davri ma'lumot mavjudligi oynasi bilan belgilandi. Sababi shundaki, mahalliy kapital bozori bo'yicha barcha ochiq indikatorlar bir xilda va muntazam e'lon qilinmaydi. Empirik baholash to'rtta markaziy ko'rsatkichga quriladi. Birinchi ko'rsatkich — kapital narxi. Aksiya uchun talab qilinadigan rentabellik CAPM modeli asosida ifodalanadi:

$$k_e = R_f + \beta (E[R_m] - R_f).$$

Kapital bozorlarida CAPM modeliga qo'shimcha ravishda mamlakat risk mukofoti (country risk premium) ham inobatga olinishi mumkin, chunki mamlakat riski o'z kapitali uchun talab qilinadigan rentabellik darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Qarz kapitali uchun esa emissiyaning samarali qiymati kupon stavkasi yoki daromadlilik darajasi (yield), likvidlik spreddi, defolt riski hamda emissiya bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olgan holda baholanadi. Foiz xarajatlari soliq bazasidan chegiriladigan holatlarda qarz kapitalining soliqlardan keyingi qiymati (after-tax cost of debt) alohida hisoblab chiqiladi. Bunda asosiy maqsad nominal kupon stavkasini emas, balki investitsion loyihaga amalda jalb qilinayotgan kapitalning sof qiymatini aniqlashdan iborat [9].

Ikkinchi ko'rsatkich — loyiha samaradorligi. Har bir instrument ostida investitsion loyiha uchun NPV va IRR qayta hisoblanadi:

$$NPV_j = \sum (FCF_t) / (1 + WACC_j)^t - I_0 - C_j,$$

bu yerda j — IPO yoki obligatsiya, C_j esa emissiya bilan bog'liq to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita xarajatlar. Shunday qilib, moliyaviy instrumentni tanlash kapital jalb qilish jarayonining o'ziga emas, balki aynan loyihaning moliyalashtirishdan keyingi iqtisodiy qiymatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. WACC konsepsiyasi kapital yetkazib beruvchilarni qoniqtirish uchun firma erishishi zarur bo'lgan minimal daromadlilik stavkasini ifodalaydi. Investitsion qaror qabul qilish jarayonida ushbu stavka asosiy "kesish nuqtasi" (cut-off rate) sifatida xizmat qiladi [9].

Uchinchi ko'rsatkich — bozor reaksiyasi. IPO yoki obligatsiya emissiyasi e'lonlari atrofida shakllanadigan abnormal daromadlilikni baholash uchun event-study metodologiyasidan foydalanish tavsiya etiladi:

$$AR_{it} = R_{it} - (\alpha_i + \beta_i R_{mt}),$$

$$CAR = \sum AR_{it}.$$

Qisqa oynali event-study yondashuvi, ayniqsa, moliyaviy hodisalarni tahlil qilishda uzoq oynali modellarga nisbatan yanada ishonchliroq natijalar berishi bilan ajralib turadi. Ushbu metod investorlarning moliyaviy instrument tanlovini qanday signal sifatida talqin qilishini tahlil qilish imkonini beradi: equity emissiyasi ayrim hollarda kompaniyaning overvaluation (ortiqcha baholanganligi) signali sifatida qabul qilinishi mumkin, obligatsiya emissiyasi esa nisbatan kamroq ulushni kamaytiruvchi (less dilutive) va bozor tomonidan ma'qulroq signal sifatida talqin etilishi ehtimoli mavjud [10].

To'rtinchi ko'rsatkich — ko'p mezonli samaradorlik indeksi bo'lib, mahalliy ma'lumotlar yetarlicha chuqur bo'lmagan sharoitda qaror qabul qilishni tizimlashtiradi. Indeks quyidagi mezonlardan tuzildi: kapital narxi, dilution (ulush kamayishi) yoki mablag' jalb qilishga ketadigan vaqt (time-to-fund), instrumentning moslashuvchanligi, boshqaruv va axborot ochiqdigi (governance va disclosure spillover) hamda bozor "oynasi"ga sezgirlik kabi omillar baholandi. Har bir emitent turi uchun bu omillar 1 dan 5 gacha ball bilan baholanib, ularning ahamiyatiga qarab og'irliklar berildi. Ushbu usul asosiy tahlil o'rnini to'liq bosmaydi, balki regressiya va event-study natijalarini ishonchliroq qilish uchun qo'shimcha tekshiruv sifatida ishlatildi [11].

Metodologiyaning asosiy cheklovi shundaki, mahalliy IPOlar soni, prospektlar sifati va ikkilamchi bozor likvidligi bo'yicha uzluksiz, tozalanib tayyorlangan keng panel ma'lumotlar hali yetarli emas. Shu sababli maqoladagi natijalar "aniq koeffitsientlarni identifikatsiya qiluvchi yakuniy ekonometriya"dan ko'ra, yuqori ishonchli institutsional faktlar va qayta qo'llanadigan analitik mantiq sifatida talqin qilinishi kerak.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, IPO va korporativ obligatsiyalar o'rtasidagi tanlov "qaysi biri yaxshiroq?" degan oddiy savol bilan hal bo'lmaydi; to'g'ri savol "qaysi emitent va qaysi loyiha uchun qaysi instrument samaraliroq?" bo'ladi. Xalqaro nazariy yondashuvlarga ko'ra, equity financing asosan kompaniyaning o'sish imkoniyatlarini (growth options) kapitalga aylantirishga xizmat qiladi, debt financing esa moliyaviy intizomni kuchaytirish va barqaror, oldindan prognoz qilinadigan pul oqimlarini leverage qilish bilan tavsiflanadi. O'zbekistonning mavjud institutsional muhiti bu farqni yanada kuchaytiradi: kapital bozori chuqurligi hali cheklangan bo'lsa-da, yuqori sifatli, governance darajasi kuchli va yirik hajmdagi emissiyalar investorlar tomonidan talab qilinmoqda [1].



Korporativ obligatsiyalar bo'yicha natijalar ham muhim. Istiqbolli loyihalar milliy agentligi qimmatli qog'ozlar reyestri va kapital bozori faoliyati bo'yicha ochiq ma'lumotlarni yuritadi; 2026-yil 4-iyun holatiga O'zbekistonda ilk ipoteka obligatsiyalari emissiyasi davlat ro'yxatidan o'tkazilgani qayd etilgan. Bu holat moliyaviy instrumentlar (market product set) doirasining kengayayotganini anglatadi, ya'ni debt financing arxitekturasini endi faqat oddiy kuponli qarz instrumentlari bilan cheklanib qolmay, balki aktivlar bilan ta'minlangan (asset-backed) shakllarga tomon rivojlanmoqda. Bunday evolyutsiya investitsion loyihalarni "maturity-matching" tamoyili asosida moliyalashtirish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega: uzoq muddatli va garov bilan ta'minlangan loyihalar uzoq muddatli va strukturaviy jihatdan murakkabroq obligatsiyalar orqali moliyalashtirilganda, qayta moliyalashtirish (refinancing) riski sezilarli darajada kamayadi [2].

Natijalarni talqin qilganda birinchi muhim nuqta shuki, IPOning samaradorligi ko'pincha noto'g'ri ravishda faqat "arzon va qaytarilmaydigan pul" sifatida tasavvur qilinadi. Aslida IPO yuqori boshqaruv majburiyati, doimiy oshkorlik, investorlarga nisbatan muntazam kommunikatsiya, board discipline va bozor bahosining real vaqt monitoringini talab qiladi. Shu bilan birga, uning kuchli tomoni shundaki, u firmaga kapital platformasi yaratadi: bir marta muvaffaqiyatli listing qilingach, keyingi SPO, block trade yoki strategik equity raise osonlashadi [12].

Ikkinchi nuqta — korporativ obligatsiya "arzonroq" bo'lgani uchun emas, balki qaror nazoratini saqlashi sababli ham ko'p hollarda samaraliroq. Xususi yoki davlat ulushi mavjud korxonalarda aksiyadorlik tuzilmasining o'zgarishi strategik jihatdan qimmatga tushishi mumkin. Bunday hollarda kupon to'lovi nominal ko'rinishda qimmatdek tuyulsa ham, nazoratni yo'qotmaslik, chiqarilgan qimmatli qog'ozning limitli muddatga ega bo'lishi va loyiha pul oqimiga mos repayment schedule tuzish imkoni obligatsiyani ustun qiladi [1].

Uchinchi nuqta — O'zbekiston bozorining o'ziga xosligi. Bu bozor "yopiq" emas, lekin "chuqur" ham emas. Bir tomondan, NAPP investor huquqlarini himoya qilish va bozorni global standartlarga yaqinlashtirish missiyasini olgan; ikkinchi tomondan, FT mahalliy bozor likvidligi va free-float bazasi hali yetarlicha keng emasligini qayd etadi. Shu sababli O'zbekistonda IPO samaradorligi katta darajada bozordan oldingi tayyorgarlik sifatiga bog'liq: IFRS auditi, mustaqil direktorlar, aniq dividend siyosati, investor-relations tizimi va anchor investorlar bo'lmasa, ayrim holatlarda IPO yangi kapital jalb qilishdan ko'ra, kompaniyaning nazorat ulushini bozor qiymatidan pastroq (valuation discount bilan) sotish mexanizmi sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Siyosiy-iqtisodiy xulosa esa undan ham muhim: kapital bozori orqali moliyalashtirish samaradorligi faqat emitent qarori emas, infratuzilma sifati mahsuli hamdir. Agar regulyator kredit reyting amaliyotini sifatli yo'lga qo'ysa, market-makingni rag'batlantirsa, prospektlarni standard disclosure formatiga o'tkazsa, birlamchi joylashtirishlarda anchor institutional investor qatlamini kengaytirsa va ikkilamchi savdoda likvidlikni qo'llasa, IPO ham, obligatsiya ham arzonlashadi. Aks holda, har ikkala instrumentning nominal afzalligi tranzaksiya va likvidlik friksiyalari ostida kamayadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Investitsion loyihalarni kapital bozori orqali moliyalashtirish jarayonida IPO va korporativ obligatsiyalar bir-birining o'rnini bosuvchi instrumentlar emas, balki turli iqtisodiy funksiyalarni bajaruvchi moliyaviy vositalar hisoblanadi. IPOning asosiy afzalligi riskni equity investorlar o'rtasida taqsimlash, korporativ boshqaruv va axborotlarni ochiqlik sifatini yaxshilash hamda kelgusidagi kapital jalb qilish (capital raising) uchun platforma yaratishdan iboratdir. Korporativ obligatsiyalarning asosiy ustunligi esa kompaniya nazoratini saqlab qolish, pul oqimlariga mos repayment schedule shakllantirish hamda ayrim holatlarda umumiy kapital qiymatini (cost of capital) optimallashtirish imkonini berishidir. Shu bois, moliyaviy qarorlar jarayonida "eng yaxshi instrument"ni izlashdan ko'ra, "eng mos instrument"ni tanlash yondashuvi ustuvor bo'lishi lozim.

O'zbekiston sharoitida esa tanlovning hal qiluvchi jihati — bozor ko'lamini va emitentning tayyorgarligi. Shu bois, IPOga chiqmoqchi bo'lgan firma avval "birjada pul topish" emas, "birjada tayyor kompaniya bo'lish" masalasini hal qilishi lozim. Obligatsiya chiqarishni rejalashtirayotgan firma esa kupon stavkasidan oldin covenant design, maturity matching, refinance risk va investorlar uchun tushunarli repayment story'ni ishlab chiqishi kerak.

Mahalliy emitentlar IPO va obligatsiya orasida "birini tanlash"dan ko'ra, ko'pincha bosqichli moliyalashtirish strategiyasini ko'rib chiqishi kerak: dastlab barqaror loyiha oqimlari uchun obligatsiya, keyin boshqaruv va axborotlarni oshkor qilish siyosati, o'sish kapitali uchun IPO. Bu yondashuv instrumentlarning kuchli tomonlarini vaqt bo'yicha kombinatsiyalashga imkon beradi. Regulyator esa aynan shu ketma-ketlikni qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmani yaratishi lozim. Shunda kapital bozori investitsion loyihalar uchun bank kreditiga qo'shimcha emas, balki mustaqil va samarali moliyalashtirish ekotizimiga aylanishi mumkin.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Wikipedia contributors. Pecking order theory // Wikipedia, The Free Encyclopedia. – URL: https://en.wikipedia.org/wiki/Pecking_order_theory (murojaat qilingan sana: 14.06.2026).

National Agency for Prospective Projects of the Republic of Uzbekistan. Register of State Registration of Securities Issues. – URL: <https://www.napp.uz/pages/davlat-ro-yxatidan-o-tkazilgan-qimmatli-qog-ozlar-chiqarilishlari-reyestri> (murojaat qilingan sana: 14.06.2026).

OECD, IMF, The World Bank. Capital Market Instruments to Mobilize Institutional Investors to Infrastructure and SME Financing in Emerging Market Economies. – Paris: OECD Publishing, 2015. – 120 p.

De Jong A., Huijgen C.A., Marra T.A., Roosenboom P. Why Do Firms Go Public? The Role of the Product Market // Journal of Business Finance & Accounting. – 2012. – Vol. 39, No. 1–2. – P. 165–192.

Lowry M., Michaely R., Volkova E. Initial Public Offerings: A Synthesis of the Literature and Directions for Future Research // Foundations and Trends in Finance. – 2017. – Vol. 11, No. 3–4. – P. 154–320.

OECD, IMF, The World Bank. Capital Market Instruments to Mobilize Institutional Investors to Infrastructure and SME Financing in Emerging Market Economies. – Paris: OECD Publishing, 2015.

Ayala D., Nedeljkovic M., Saborowski C. What Slice of the Pie? The Corporate Bond Market Boom in Emerging Economies // CESifo Working Paper. – 2017. – No. 6376.

OECD. Corporate Bond Markets in a Time of Unconventional Monetary Policy // OECD Capital Market Series. – Paris: OECD Publishing, 2019; OECD. Corporate Bond Market Trends, Emerging Risks and Monetary Policy // OECD Capital Market Series. – Paris: OECD Publishing, 2020.

Wikipedia contributors. William F. Sharpe // Wikipedia, The Free Encyclopedia. – URL: https://en.wikipedia.org/wiki/William_F._Sharpe (murojaat qilingan sana: 14.06.2026).

Wikipedia contributors. Event Study // Wikipedia, The Free Encyclopedia. – URL: https://en.wikipedia.org/wiki/Event_study (murojaat qilingan sana: 14.06.2026).

Reuters. Success of Uzbekistan's First London IPO Will Inspire Others, Fund Chief Says // Reuters. – 20 May 2026. – URL: <https://www.reuters.com/world/asia-pacific/success-uzbekistans-first-london-ipo-will-inspire-others-fund-chief-says-2026-05-20/> (murojaat qilingan sana: 14.06.2026).

Wikipedia contributors. Jay R. Ritter // Wikipedia, The Free Encyclopedia. – URL: https://en.wikipedia.org/wiki/Jay_Ritter (murojaat qilingan sana: 14.06.2026).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>